O‘zgartirishlar kiritilgan va takomillashtirilgan ta‘lim dasturlari haqida ma‘lumot

Ta‘lim dasturlarini takomillashtirish maqsadida manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, bitiruvchilar, talabalar) fikrlari o‘rganilishi asosida fan sillabuslari hamda fan dasturlarining mazmunlari qayta ko‘rib chiqildi.

Amaliyot va dual ta‘lim elementlari kuchaytirildi, raqamli vositalar bo‘yicha modullar ta‘lim jarayoniga kiritildi. Ushbu chora-tadbirlar ta‘lim dasturlarining mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy pedagogik talablar bilan uyg‘unligini ta‘minladi.

Xususan, universitetdagi ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga tanlov fanlari sifatida “Islom bank ishi”, “Islom moliyasi”, “Shaharlar iqtisodiyoti”, “Investitsion faoliyat”, “Buxgalteriya hisobida raqamli transformatsiya”, “Moliyaviy hisobot va tartibga solishning zamonaviy muammolari”, “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”, “Qardosh xalqlar folklori”, “Kompyuter lingvistikasi” va boshqa fanlar kiritildi. Barcha ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan fanlar mavzularining o‘rtacha 15–20 foizi zamon talablariga moslab yangilandi.